

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib




### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




### Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 561,2** mld so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **12,8 %**ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1 252,1** mld so'mni (**193,5 %** ga oshgan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4 309,1** mld so'mni (**0,7 %** ga oshgan), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **838,4** mld so'mni (**5,1 %** ga oshgan) tashkil etdi.

### Tarkibiy qism, ulushlarda



### Uyushmagan savdo, mld so'm




## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 561,2** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **112,8 %**ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmining barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **77,5 %** va yirik korxonalar hissasiga **22,5 %** to'g'ri keldi.



### ENG YUQORI ULUSH


Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **41,3 %** ko'rsatkich bilan **2 294,9** mlrd so'mni tashkil etdi.

### ENG QUYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **1,9 %** ulush bilan **104,6** mlrd so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**

XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-iyun



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, 4 309,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,4 %ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 77,5 %ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqa'l'a (99,9 %), Gurlan (99,3 %), Yangiariq (99,1 %) va Bog'ot (98,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.




Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	2022- yil yanvar-iyun
		2021- yil yanvar-iyun

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi 12,8 foizga oshib, yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahrida – 132,6 %, Shovot tumanida – 104,5 %, Gurlan tumanida– 105,3 %ni tashkil qildi.

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	5 561 161,8	112,8	1 252 131,5	193,5	4 309 030,4	100,7
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	2 294 887,6	132,6	1 137 391,3	214,5	1 157 496,3	96,4
Xiva	176 483,3	100,9	12 868,1	103,0	163 615,2	100,7
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	245 823,6	102,6	2 772,4	116,1	243 051,1	102,5
Gurlan	437 363,7	105,3	3 231,2	58,5	434 132,6	106,0
Qo'shko'pir	191 070,5	101,5	9 365,8	81,6	181 704,7	102,8
Urganch	449 869,5	100,8	17 689,5	69,5	432 180,0	102,7
Hazorasp	494 221,8	100,8	27 741,2	95,4	466 480,6	101,1
Tuproqql'a	104 629,6	100,5	145,1	62,2	104 484,5	100,6
Xonqa	363 344,8	102,2	21 294,7	159,8	342 050,2	99,9
Xiva	134 930,2	100,8	2 245,6	80,7	132 684,6	101,2
Shovot	351 036,7	104,5	9 451,6	168,8	341 585,1	103,4
Yangiariq	205 019,6	100,6	1 760,3	125,9	203 259,3	100,5
Yangibozor	112 480,8	102,7	6 174,4	86,5	106 306,4	103,8

**XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
2022- yil yanvar-iyun


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **193,5 %**ga oshdi va **1 252,1 mlrd soʻmni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **22,5 %** ulushiga toʻgʻri keladi.




### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, **4 309,0 mlrd soʻmni** tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **0,7 %**ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **77,5 %**ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,9 %), Gurlan (99,3 %) va Yangiariq (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 22,5 %ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (49,6 %), Xiva shahri (7,3 %) va Xonqa tumanida (5,9 %) kuzatildi.



2022- yilning yanvar-iyun oylari holatiga

ko'ra, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi o'rtacha **2 880,8** ming so'mni (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **11,0 %** ga oshgan) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Urganch shahri (130,7%), Gurlan (103,5 %) va Shovot (102,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (15 569,1 ming so'm), Gurlan (2 868,0 ming so'm) va Hazorasp (2 479,8 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


## XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-iyun

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda



### Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

2022- yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **838,4** mlrd soʼmni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,1 %**ga oʼsdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari maʼlumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shugʼullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xoʼjaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **380,4** mlrd soʼmni (oʼzgarish surʼati 98,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **458,0** mlrd soʼmni (oʼzgarish surʼati 110,9 %) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

#### Uyushmagan savdo

**838,4 mlrd soʼm, 100 %**


#### Dehqon bozorlari

**380,4 mlrd soʼm,  
45,4 %**

#### Chorva bozorlari

**458,0 mlrd soʼm,  
54,6 %**

### Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

XORAZM VILOYATI  
ULGURJI VA CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASI  
2022- yil yanvar-iyun

2022- yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 380,4 mlrd so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 458,0 mlrd so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagи tadbirkorlar (YTT)ni qо'shмаган holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	838,4	105,1	380,4	98,8	458,0	110,9
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	162,7	102,6	106,0	98,1	56,6	112,4
Xiva	21,6	173,4	20,2	162,1	1,4	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	133,1	109,6	23,3	130,9	109,8	106,0
Gurlan	114,5	149,7	30,4	128,5	84,1	159,1
Qo'shko'pir	71,6	120,0	46,5	110,3	25,1	143,4
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	96,5	109,3	56,4	127,4	40,1	91,2
Tuproqqa'l'a	7,5	29,8	4,1	17,7	3,4	165,4
Xonqa	53,3	70,4	36,7	67,1	16,6	79,0
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	135,1	91,6	34,9	76,6	100,2	98,3
Yangiariq	23,5	110,1	12,4	133,9	11,1	91,8
Yangibozor	19,1	167,4	9,6	2,4 m.	9,5	128,4



5,9  
mlrd so'm

Tuzlamalar



171,2  
mlrd so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



21,2  
mlrd so'm

Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

59,1  
mlrd so'm



Non va non  
mahsulotlari



9,3  
mlrd so'm

8,4  
mlrd so'm



Sut va sut  
mahsulotlari

Tuxum



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

59,0  
mlrd so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **380,4** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**171,2** mlrd so'm) to'g'ri keldi.



7,8  
mlrd so'm

Ziravorlar



18,3  
mlrd so'm

Tovuq go'shti



3,5  
mlrd so'm

Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI


2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning **11** ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **458,0** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagи qoramollar savdosi **416,6** mlrd so'mni, qo'y va echkilar savdosi **37,6** mlrd so'mni, parrandalar savdosi **3,5** mlrd so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTALARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,7 %ni tashkil etib, 91,9 mlrd so'mga yetdi va 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 12,2 %ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	91878,2	112,2	3131,9	6,4 m.	88746,3	109,0
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	40056,7	115,3	3131,9		36924,8	106,3
Xiva	3583,0	109,7			3583,0	109,7
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	3645,3	106,8			3645,3	106,8
Gurlan	2616,0	107,1			2616,0	107,1
Qo'shko'pir	1396,0	101,7			1396,0	101,7
Urganch	16455,8	102,6			16455,8	105,8
Hazorasp	5581,1	118,4			5581,1	118,4
Tuproqqa'l'a	1681,5	102,5			1681,5	102,5
Xonqa	2435,1	104,4			2435,1	104,4
Xiva	2683,6	118,3			2683,6	118,3
Shovot	8263,3	128,7			8263,3	128,7
Yangiariq	1852,6	110,7			1852,6	110,7
Yangibozor	1628,2	104,2			1628,2	104,2

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda



### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



2022- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi

**2 303,0** mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **19,4** %ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **459,0** mlrd so'mni (**15,4** %ga ko'paydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 844,0** mlrd so'mni (**20,4** %ga ko'payish) tashkil etdi.


### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

**Ulgurji savdo**  
**2 303,0 mlrd so'm, 100 %**

**Yirik korxonalar**  
**459,0 mlrd so'm, 19,9 %**

**Mikrofirma va kichik korxonalar**  
**1 844,0 mlrd so'm, 80,1 %**

### Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Yangiariq tumani (53,4 m.), Hazorasp tumani (43,22 m.) va Xonqa tumani (12,9 m.) qayd etildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Qo'shko'pir tumani (188,7), Yangiariq tumani (183,0), Xonqa tumani (161,6%) va Hazorasp tumanida (158,5%) kuzatildi.


**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln so'm	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	2 302 975,5	119,4	459 004,9	115,4	1 843 970,7	120,4
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 039 891,8	114,2	104 471,6	83,0	935 420,1	119,2
Xiva	101 585,6	140,8	337,3	63,9	101 248,3	141,3
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	67 208,5	135,2	43 322,1	144,8	23 886,4	120,8
Gurlan	161 069,8	145,5	93 493,4	123,7	67 576,4	192,2
Qo'shko'pir	23 005,7	188,7	4,2	62,8	23 001,6	188,8
Urganch	395 920,4	105,9	137 732,9	86,5	258 187,5	120,2
Hazorasp	44 471,8	158,5	12 940,7	43,2 m.	31 531,2	113,6
Tuproqqa'l'a	30 796,1	132,5	11,1	55,3	30 785,1	132,6
Xonqa	135 121,0	161,6	55 351,4	12,9 m.	79 769,6	100,5
Xiva	164 983,5	105,6	1,6	1,3	164 981,9	105,7
Shovot	35 193,6	111,1	8,0	16,7	35 185,6	111,2
Yangiariq	54 875,5	183,0	10 513,6	53,4 m.	44 361,9	148,9
Yangibozor	48 852,2	119,9	817,1	97,8	48 035,2	120,4



**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES  
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO  
TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **1 844,0** mlrd so'mni tashkil etgan va 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **20,4** %ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **80,1** %ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qo'shko'pir, Tuproqqa'l'a, Xiva va Shovot tumanlarida (100,0 %) yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Bog'ot tumani (35,5 %) va Gurlan tumaniga (42,0 %) to'g'ri keldi.

Yirik korxonalar	Mikrofirma va kichik korxonalar	2022- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (62) 224-65-09**